


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 711,5 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,8 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyul, mln.AQSh dollari)



Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 326,7 mln.AQSh dollariga (25,2 % ga ko'paydi) va import hajmi 384,8 mln.AQSh dollariga (13,9 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 58,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-iyul, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	227,1	163,2	63,9	31,9
Xitoy	172,9	24,6	148,3	24,3
Turkiya	59,4	31,3	28,2	8,4
Qozog'iston	53,3	19,2	34,2	7,5
Qirg'iz Respublikasi	49,9	41,2	8,7	7,0
Germaniya	16,9	5,0	11,9	2,4
Belorussiya	13,8	1,3	12,5	1,9
Polsha	12,5	6,0	6,5	1,8
Litva	11,9	1,8	10,1	1,7
Koreya Respublikasi	11,3	1,3	10,0	1,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 68 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (31,9 %), Xitoy Xalq Respublikasida (24,3 %), Turkiyada (8,4 %), Qozog'istonda (7,5 %), Qirg'iz Respublikasida (7,0 %), Germaniya (2,4 %) va Belorussiya (1,9 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Respublika Koreya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (227,1 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (172,9 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, ming.AQSh.dollari)**



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	125738,6	168929,1	227147,2
Eksport	76137,6	114720,3	163244,3
Impori	49601,1	54208,8	63902,9
saldo	26536,5	60511,6	99341,3
Xitoy	110538,6	151420,7	172889,0
Eksport	19240,6	38867,7	24556,6
Impori	91298,0	112552,9	148332,4
saldo	-72057,3	-73685,2	-123775,8
Turkiya	28481,0	57239,8	59427,9
Eksport	8168,3	18128,6	31276,0
Impori	20312,7	39111,1	28151,9
saldo	-12144,4	-20982,5	3124,1
Qozog'iston	59931,4	62904,4	53310,8
Eksport	31807,8	22831,3	19152,0

Impori	28123,6	40073,1	34158,9
saldo	3684,1	-17241,8	-15006,9
Qirg'iz Respublikasi	65638,3	36748,5	49863,9
Eksport	62429,5	32678,9	41157,5
Impori	3208,8	4069,6	8706,4
saldo	59220,7	28609,3	32451,1
Germaniya	10890,5	8007,3	16925,1
Eksport	2118,2	1097,7	4981,4
Impori	8772,3	6909,6	11943,8
saldo	-6654,1	-5811,9	-6962,4
Belorussiya	1866,0	8225,5	13839,2
Eksport	1484,6	1489,8	1296,8
Impori	381,4	6735,7	12542,4
saldo	1103,2	-5245,9	-11245,6
Polsha	4821,4	8488,8	12502,5
Eksport	3753,7	4633,7	5982,0
Impori	1067,6	3855,2	6520,5
saldo	2686,1	778,5	-538,5
Litva	1480,6	1829,5	11876,5
Eksport	58,1	324,4	1788,1
Impori	1422,5	1505,1	10088,4
saldo	-1364,3	-1180,8	-8300,3
Koreya Respublikasi	11133,9	5671,4	11307,6
Eksport	197,8	87,1	1262,0
Impori	10936,1	5584,3	10045,5
saldo	-10738,2	-5497,2	-8783,5
Turkmaniston	3398,5	6899,6	9049,4
Eksport	1924,0	1933,1	3847,2
Impori	1474,6	4966,6	5202,2
saldo	449,4	-3033,5	-1354,9
Ukraina	6003,6	8641,3	8096,1
Eksport	4570,4	4937,5	4415,2
Impori	1433,2	3703,8	3680,8
saldo	3137,2	1233,7	734,4

Hindiston	4134,4	10798,4	6804,4
Eksport	216,8	655,7	270,6
Impori	3917,7	10142,6	6533,8
saldo	-3700,9	-9486,9	-6263,2
Tojikiston	3999,5	3779,4	6118,7
Eksport	3451,8	2822,5	3437,9
Impori	547,7	956,9	2680,7
saldo	2904,2	1865,6	757,2
Frantsiya	3000,4	4627,0	5356,8
Eksport	-	-	57,0
Impori	3000,4	4627,0	5299,8
saldo	-3000,4	-4627,0	-5242,8
Eron	1359,7	3539,4	5302,4
Eksport	379,7	638,3	2540,1
Impori	980,0	2901,1	2762,4
saldo	-600,3	-2262,7	-222,3
Latviya	597,6	1341,6	3320,7
Eksport	7,3	66,8	436,9
Impori	590,3	1274,8	2883,8
saldo	-582,9	-1208,0	-2446,9
Italiya	3172,2	4879,2	3173,3
Eksport	980,0	673,9	962,7
Impori	2192,2	4205,3	2210,6
saldo	-1212,2	-3531,3	-1247,9
Malayziya	5583,7	4272,9	2958,3
Eksport	-	-	-
Impori	5583,7	4272,9	2958,3
saldo	-5583,7	-4272,9	-2958,3
Shveytsariya	12097,5	1762,5	2257,1
Eksport	-	0,4	-
Impori	12097,5	1762,1	2257,1
saldo	-12097,5	-1761,6	-2257,1

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 52,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 2,0 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyul % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-iyul oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (2,0 % ga) va jami TSA dagi ulushi 47,8 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning eksportyorlar soni 384 tani tashkil etib, ular tomonidan 326,7 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,0 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (57,6 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (22,7 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (12,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyul)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	326,7	239,5	87,1	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	41,8	27,4	14,3	12,8	11,5	16,4
Ichimliklar va tamaki	0,7	0,7	-	0,2	0,3	-
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	4,3	1,3	3,0	1,3	0,5	3,5
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	0,9	0,2	0,3	0,4	0,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	6,4	4,5	1,9	2,0	1,9	2,1
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	188,1	130,4	57,8	57,6	54,4	66,3
Mashina va transport uskunalari	3,6	3,5	0,1	1,1	1,5	0,1
Har xil tayyor mahsulotlar	74,1	67,6	6,4	22,7	28,2	7,4
Xizmatlar	6,5	3,1	3,5	2,0	1,3	4,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-iyul, % va ulushi)




2022- yilning yanvar-iyul oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 50,0 %), Qirg'iz Respublikasi (12,7 %), Turkiya (9,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,5

%), Qozog'iston (5,9 %), Polsha (1,8 %) va Germaniya (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,0 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2022 – yilning mos davrida 62 davlatga eksport amaliyotini amalga oshirgan.

NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyul, % da)



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-iyul)

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	114746,3	163253,8	150,6	142,3	1	1
Qirg'iz Respublikasi	32946,0	41515,1	52,2	126,0	3	2
Turkiya	18128,6	31276,0	220,7	172,5	5	3
Xitoy Xalq Respublikasi	38867,7	24556,6	202,0	63,2	2	4
Qozog'iston	22850,4	19153,1	71,8	83,8	4	5
Polsha	4633,7	6001,8	123,4	129,5	7	6
Germaniya	1097,7	4981,4	51,8	453,8	13	7
Ukraina	4937,5	4415,2	108,0	89,4	6	8
Turkmaniston	1933,1	3852,7	100,2	199,3	11	9
Tojikiston	2828,8	3438,6	81,0	121,6	8	10
Eron	638,3	2540,1	168,1	397,9	16	11
Afg'oniston	2565,4	2089,6	152,3	81,5	9	12
Litva	324,4	1788,1	558,0	551,2	18	13
Azerbadjon	289,0	1472,3	58,3	509,4	19	14
Belgiya	650,6	1342,4	3514,2	206,3	15	15
Belarus	1489,8	1296,8	100,4	87,0	12	16
Koreya Respublikasi	87,1	1262,0	44,0	1448,4	20	17
Portugaliya	2282,6	1152,6	283,5	50,5	10	18
Isroil	478,8	1008,9	236,6	210,7	17	19
Gruziya	799,3	1008,3	168,1	126,2	14	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 6533,7 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,0 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 88,5 % ga ka'mayganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 188,1 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 57,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 132,8 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-iyul)

2022 - yil yanvar-iyul oyida import hajmi 384,8 mln.AQSh dollarini va 2021-yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (35,2 %), Sanoat mahsulotlari (22,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashinalar va transport uskunalari
- Turli xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 47,0 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 384,8 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyul)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	384,8	131,9	253,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	54,4	39,3	15,0	14,1	29,8	5,9
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat hisoblanadi	23,2	18,4	4,9	6,0	13,9	1,9
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	14,8	14,4	0,4	3,8	10,9	0,2
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	11,5	7,9	3,6	3,0	6,0	1,4
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	49,4	12,3	37,1	12,8	9,4	14,6
Sanoat mahsulotlari	85,3	27,1	58,2	22,2	20,5	23,0
Mashinalar va transport uskunalari	135,3	10,7	124,6	35,2	8,1	49,3
Turli xil tayyor mahsulotlar	11,0	1,8	9,2	2,9	1,4	3,6

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (29,8 %) Sanoat mahsulotlari (20,5 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (49,3 %), Sanoat mahsulotlari (23,0 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 11,7 % ga, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 27,0 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 15,5 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar-iyul, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 39,2 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,6 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	116452,5	150941,1	123,7	129,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	54257,5	63934,2	109,2	117,8	2	2
Qozog'iston	40218,9	34162,2	142,8	84,9	3	3
Turkiya	39213,5	28225,0	191,8	72,0	4	4
Belarusiya	6735,7	12542,4	1766,2	186,2	7	5
Germaniya	6932,3	11955,5	78,9	172,5	6	6
Koreya Respublikasi	5839,2	10115,8	51,4	173,2	8	7
Litva	1505,1	10088,4	105,6	670,3	18	8
Qirg'iz Respublikasi	4079,6	8837,7	126,1	216,6	13	9
Hindiston	10142,6	6533,9	257,7	64,4	5	10
Polsha	3859,6	6527,1	360,7	169,1	14	11
Fransiya	4627,0	5299,8	154,2	114,5	10	12
Turkmaniston	4966,6	5202,2	336,8	104,7	9	13
Ukraina	3844,5	3680,8	268,2	95,7	15	14
Malaziya	4451,1	3050,8	79,7	68,5	11	15
Latviya	1274,8	2883,8	216,0	226,2	19	16
Eron	2937,5	2770,1	299,7	94,3	16	17
Tojikiston	956,9	2680,7	174,6	280,1	20	18
Shveysariya	1762,5	2257,1	14,6	128,1	17	19
Italiya	4269,0	2210,6	193,2	51,8	12	20

2021- yining mos davriga nisbatan 60 davlatdan 62 davlatga ko`paydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-iyul % da)**



Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog`iston, Belarus, Germaniya, Respublika Koreya) jami importning 81,0 % ini tashkil qiladi, bu 311 876,3 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunarlar, shuningdek, ularning qismlari importining o`shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Belarus tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi
Tel.:(69)-211-72-00